



ZOKIR ZIKRI VA UNING MA'NAVIY MARTABASI.

Abdullayeva Nilufar Ibragim qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası
o'qituvchisi

E-mail: nilufarabdullayeva789@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12606650>

ARTICLE INFO

Received: 27th June 2024

Accepted: 28th June 2024

Published: 01st July 2024

KEYWORDS

Tasavvuf, zikr, yassaviya tariqati, "Hu..hu"
zikri, "Bismilloh" zikri, Zokir, Zokirning
ma'naviy martabasi

ABSTRACT

Ushbu maqolada "Yassaviya" tariqatida zikr tartiblariga, ularning aytilish usullariga hamda zikrning badiiy adabiyotdagi ifodasiga, Zokirlik, zokirlikning ma'naviy martabasiga alohida e'tibor qaratilgan

Zokir arabcha so'z bo'lib, asosi zikr so'zidan olingan – "eslovchi", "yodlovchi", "yodga oluvchi" degan ma'nolarni anglatadi¹. Allohni eslagan banda zokir deb ataladi, zokirning sinonimlari ham mavjud bo'lib tasavvufda solik, murid deb ham nomlanishi mumkin, tasavvuf yo'liga kirib, Alloh Taolloga va uning payg'ambarlariga imon keltirib, shayxning izidan ergashib, u bergan vazifalarni ado etuvchi, Allohning zikrini har soniyada takrorlovchi islom adabiyotida va tasavvufda solik deb ataladi. Soliklarga ergashgan shayxi tomonidan vazifalar beriladi, Alloh va unga yetish sir-asrorlari o'rgatiladi, eng asosiysi bu yo'lda solikning nafsini yenga olishi, yuqorida aytib o'tilgan nafs bosqichlaridan o'tishi eng muhimidir. Har bir nafs bosqichida zokir erishadigan maqomi va o'sha maqomga loyiq darajada vazifalari bo'ladi. Solikning o'ziga yarasha odoblari mavjud bo'lib ular quydagilar:

- a) Alloh Taollodan har doimo umidvor bo'lish .
- b) zikr uchun Tangridan yordam so'rash .
- c) zokirning har doimo pok bo'lishi zarurligi .
- d) masjid va shunga o'xshash joylarni o'ziga makon qilmoqligi .
- e) zikrning hislatlarini anglagan holda zikr aytish .
- f) Solik amaldan keyin zikrni amalga oshirmoqlik .
- g) Noqulay holat va sharoitlarda zikrni to'xtatmoqlik .
- h) Qibla tomonga yuzni burgan holda zikrni amalga oshirishlik .
- i) Fikr va hayolni jamlab qalb bilan Allohni yaqiligini his qilgan holda zikr qilishlik .
- j) Zikrni imkon qadar yolg'iz holda qilmog'lik .

Solik so'ziga ham qisqacha ta'rif berib o'tsak: "solik" arabcha- yo'lchi, yo'ldan yuruvchi, tariqat yo'lini o'rganuvchi shaxsdir .

Zokirning nafs martabalida qilgan ziklari, erishgan makoni va mavqeyini jadval ko'rinishda berib o'tamiz:

¹ Ан-на'им-ул-кабир .Араб-узбек лугати.Наманган,2014,231-бет.

Nafs martabalar	Zikr qilinadigan Ismlar	Joy	Nurning Rangi	Kalimayi tavhidga beriladigan ma'no .
1 .Ammora	La illaho illaloh	Sadr	Ko'k	La ma'buda illalloh
2 .Lavvoma	Alloh	Qalb	Sariq	La maqsuda illalloh
3 .Mulhima	Hu	Ruh	Qizil	La mahbubba illalloh
4 .Mutmina	Haq	Sir	Qora	La mavjuda illalloh
5 .Roziya	Hayy	Sirrus-sir	Yashil	La mavjuda
6 .Marziya	Qayyum	Hofiy	Oq	Vala maqsuda
7 .Komila	Qahhor	Ahvo	Rangsiz	Vala mahbuba illalloh

Zokir qilgan zikrlari hamda shayxning ko'rsatmalari asosida nafsning ushbu martabalariga erishadi, zokir zikrning ko'pligiga qarab, qilgan ammallari sababli Alloh Taolloga yaqinlashdi .Uning marhamatiga erishadi, bu yo'lga uni boshlovchi albbata bir shayx bo'lishi shart, hech bir tasavvuf yo'lga kirgan tolib ustozsiz bu yo'lni bosib o'tolmaydi. Zokir tasavvuf yo'lga kirarkan quyidagi amallarni va ustunlarni bajarishi shart: zikr – Alloh Taolloni eslash va uning marhamatidan umidvor bo'lish; ochlik ya'ni ro'za tutmoqlik va Alloh Taolloni unitib qo'ymaslik; g'am-din g'ami, oxirat g'am, nafsni yengish g'ami kabilardir². Islom adabiyotida bo'lgan barcha tariqtlarida shayxlari o'z shogirtlariga zokirlik yo'lida qilinishi kerak bo'lgan mashaqqatli vazifalarni yuklaydi va tolibi ilmni sabrini, etiqodini, irodasini, ishonchini sinab ko'radi .Misol tariqasida tasavvuf olamida mashhur bo'lgan Boborahim Mashrabga ustozni sinovdan o'tkazish maqsadida bir necha yillar Buxoro shahridagi hojatxonalarini tozalashni, yana bir necha yillar Buxoro qushxonalarini tozalashni va bir necha yillar ustozining ostonasida xizmat qilishi aytib sinaydi³. Tasavvufda zokirlarning qalb va uning xususiyatlari haqidagi fikr-mulohazalari nihoyatda qiziqarli va hamma zamon odamlari uchun g'oyatda ahamiyatlidir .Ahmad Rifo'iy yozadi: "Qalb bir go'sht parchasidir .Ayni paytda shu bir parcha go'sht, ya'ni qalb nurlar yig'iladigan joy erur, Ollohning yaratgani yaxshilik va yomonlik bir yerga tuplanadigan maskandir .Ayni shu zaylda aks ettirgani yaxshilik va yomonlik tuyg'usiga qarab qalb bir qiymat kasb etar .Janobi Haq vujudga amr aylash huquqini qalbgaga bergandir" .Demak, inson qalbi rahmoniy va shaytoniy lashkarlar murosasiz olishadigan bir janggoh hamdir .Bunda xar ikki tomon ham qalbni o'ziga tobe va taslim etishni xohlaydi .

Mutasavvufning fikricha: "Agar zafar shayton lashkarlari tomonida bo'lsa, inson hayvonlar qatoriga qo'shilar .Agar bu kurashda rahmoniy askarlar g'olib chiqsa inson malaklar maqomiga yuksalar" .Qalbning ikki darvozasi bo'lib, biridan ma'rifat, ikkinchisidan vahm kirarkan .Qalbning muzaffarligi ma'rifatning mavqei va darajasiga qarab belgilanadi, vahmdan forig' bo'lmagan qalb hech qachon tubanlik, mutelik va jaholat ofatlaridan forig' bo'la olmaydi .Shuning uchun qalbning tavr va tabaqotlari xususida aniq tasavvurga ega bo'lish ham katta ahamiyat kasb etadi .Ular quyidagilardir: 1 .Sadr - ko'krak .Har turli vasvasa va ofatlar kiradigan joy .Ehtiyoj, shahvat, andisha va qisinish tuyg'ulari shu yerdan o'rin topadi .Islom nurining ilk kiradigan joyi ham xuddi ana shu sadr hisoblanadi. 2.Qalb - sadrning ichi, yurak ham deyiladi .Iymon nuri porlaydigan joy, muhabbat, rizo, qanoat singari tuyg'ularning markazi erur .3.Shigof - xalqni sevish, oddiy odamlarga hamdardlik hissiyoti parvaristopadigan joy .4 .Fuod -qalbning orasidagi joy bo'lib, xuddi shu

² Nodirxon Hasan.Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni Hikmat".Monografiya, T - , "Akademnashr" 2012., 84-bet.

joydan g'arbiy haqiqatlar yuz kursatib, ma'rifat sirlari ochiladi .5 Suvaydo - ilmi laduniyga yetishish martabasi 6.Muxjatul qalb - Ilohiy nurlar tajalliy aylaydigan joy.

7 Lubb - tavhid nurining manbai .

G'azzoliy o'z asarlarida, xususan, "Ihyo"da qalb holi, hayoti, haqiqatlari, kamolotga yetishish sir-asrorlari to'g'risida keng bahs yuritgan .Buyuk olimning qalbgaga doir fikr-mulohazalari, birinchidan, qalb to'g'risidagi bilim va tasavvurlarni nihoyatda kengaytiradi .Ikkinchidan, qalb tarbiyasi va tasfiya etish yo'llarini o'rgatadi .U ma'rifat darajasi va yetakchi fazlatlariga qarab qalb to'rtga ajralishini yozadi .Bulardan birinchisi .yolgiz Olohni sevib, faqat Olohni bilish va mushohada aylash bilai faxrlanadigan qalb Ikkinchisi, ma'rifat va Oloh bilan unsiyat zavqidan yiroq qalb .Bunday qalb sohiblarini quvontiradigan narsa - boylik, amal va har turli moddiy manfaatlardir .

Uchinchi xil qalb esa, ko'p kuchini Olohga intilish, Haq ishqidan huzurlanishga bag'ishlaydigan va goho bashariy sifatlarga ham qaytguvchi qalb sanaladi .Nihoyat yana bir turli qalb bordurki, u bashariy sifatlardan ajralmasa-da, ba'zi-ba'zida ilm va ma'rifatdan shavqlanishni ham biladi .

G'azzoliyning e'tirofi bo'yicha, birinchi xil qalb behad kamyob, eng ko'p uchraydigani ikkinchisi, ya'ni o'tkinchi dunyo hirsiga to'lib toshgan qalbdir .Qalbning uchinchi va to'rtinchisi ko'rinishlari mavjud bo'lsa-da, ammo ularning soni uncha ko'p emasdir .Shu o'rinda yana bir haqiqatga aniqlik kiritib o'tish maqsadga muvofiqdir .Tasavvufiy hayotning manbai ham, mazhari ham ko'nguldir .Tasavvuf adabiyotida qalb yoki yurakka nisbatan ko'ngul ko'p tilga olinadi va ko'ngul to'g'risidagi ko'p fikr bildiriladi .Xo'sh, buning sababi nimada? "Miftohul-qulub"dagi mana bu so'zlar ushbu savolga o'ziga xos bir javobdir: "Ko'ngul qalbning ichidadur .Sharafi qalbdan ko'p ortiq erur .Qalbgaga ozor berish insonni sirtidan buzadi, chirkinlashtiradi va halok aylaydi . . .Ko'ngul qalbning bag'rida bo'lganligi tufayli ko'ngulga qattiq tegmak odamni ham zohiran, ham botinan halok etar" .Mana shuning uchun ko'ngul taqdiri, holati va haqiqatlariga doir mulohaza va mushohadalar tasavvufda nihoyatda keng o'rin ishg'ol etgan .Hatto tasavvufiy istilohlar orasida qalb va ko'ngul holi yoki haqiqatlarini sharxlaydigan kalima va atamalar yetakchi o'rinni egallaydiki, buni bilmasdan, ayniqsa, tasavvuf she'riyatining mazmun-mohiyatini to'g'ri anglab ham, talqin qilib ham bo'lmaydi .Ana shu ehtiyojni hisobga olib biz ulardan ayrimlariga diqqatni jalb etishni lozim ko'rdik .Avoiq - to'siq, moneliq qiluvchi narsa .Qalbning Olohga tomon yuksalishi va ruhning unga ochilishini to'sadigan turli-tuman moddiy va ma'naviy ma'nilar, ziddiyatlar .Avoiq uchdir: shirk, bid'at, gunoh .Anvori hidoyat - hidoyat nurlari .Ko'ngulni munavvar etguvchi g'ayb ilhomlari va tajalliyarlari .A'oli qulub - botiniy fe'llar .Botiniy hukmlar-qalbning fe'l va amallariga oid diniy, ilohiy hukmlar .Bast-qabz - yoyilish-to'planish, sevinish - qayg'u chekish, kenglik-torlik, ochilish-yopilish hollari .Zehn va qalbning ochilish va nihoyatda mahsuldor, yaratuvchan holga kirishi .Bo'sa - o'pmak, o'pish .Qalbdagi fayz va joziba; erishilgan xushxabar natijasida qalbdan hosil bo'lgan quvonch, lazzat, huzur .Vajd - ishq va muhabbat, oshiq qalbidan tabiiy bir ravishda tug'iladigan ilhom va surur holi .Vorid - ma'nolarining qalbgaga kirishi va zuhurlanishi .Gul - ko'ngulda hosil bo'lgan bilimning natijasi va mevasi .Gulshan - mutlaq o'larok, qalbning fathi va ochilishi .Solik ko'nglining ma'rifat va irfonga to'lishi .Jazbul arvoh - qalbning yuksalishi, sirlarining mushohada etilishi, munojot, Olohga qalban taslimlik holi .Jilva - noz, istig'no, go'zallarning ko'ngulni fath etuvchi holi yoxud chiroyli harakatlari .Suluk ahlining ko'nglida porlagan ilohiy nur .Bu nur oshiqni telba qilur .Zavoyid - qalbdagi nurlarning ko'payishi .Lab - dudoq, kalom, so'z .Labi shakar: malak vositasida payg'ambarlarga, qalb tasfiyasi tufayli valilarga ko'kdan inadigan kalom .Lavomi-qalbdan nurning foyda va ta'sirlari boqiy qoladigan shaklda zuhurlanish .Laja' - qalbning umid va sog'lom bir faqr tushunchasi ila Olohga yunalish holi .Malja - Murodning hosil bo'lishiga qalbning umidvorligi .Muxobara - qalbning huzur holati .Nafas - g'aybdan tug'ilgan latif hollar va qalbning ishq o'tidan farahlanishi .Noz - ma'shuqaning dardli va mahzun oshiq ko'ngliga kuch bag'ishlashi .Rayin - qalbning kirlanishi, zanglashi .Oloh taolo buyurmish: "Yo'q,

aksincha ularning qilayotgan yomonliklari qalblarini kirlatmishdir” (al-Mutaffifin, 14-oyat), Rayhon - gul.Zikr va zikr natijasida qalbdagi porlagan nur .

Rams - biror bir narsani ko'nguldan supurib tashlash layoqati .Ro'yatul qalb-qalblarning ko'rishi, iymon hakikatiga erishib g'aybiy sirlarga boqish .Samt-jim turmoq, sukut saqlash .Sukut ikki qismdir: zoxiriy - tilda, botiniy - qalb va ko'ngul sukuti .Sohibi qalb - ko'ngul ahli .Qalbida yig'ilgan ilmni ravon bir ifoda, ochik bir til bilan ifodalay olmaydigan kishidir .Tavoli - ko'ngulda ma'rifat nurining tug'ilishi .Tavoriq - lug'aviy ma'noda “tunda porlagan yulduz” demak .Istilohiy ma'noda suluk ahlining ko'nglidagi eshitish, ya'ni quloq orqali hosil bo'ladigan yangi va qalbni yangilovchi haqiqatlar .Tasfiya - qalbni soflashtirmoq; haqiqat idroki, mujohada va riyozat .Sham' - ilohiy nur .Solik qalbini yoqqan ilohiy nurning porlashi, mushohada ahlining ko'nglida zuhurlangan irfon nuri .

Shamsul qalb - qalb quyoshi .G'ayb olamiga yetishganlarning qalbini yorishtiradigan oftob .Unga muqaddamul g'ayb, mezonul g'ayb, shamsul irfon, shamsur ruhoni ham deyilgan .Shohid - qalb bilan tenglashgan narsa .Masalan, ishq, vajd, alam .Qatra - tomchi .Ilohiy tajalliyar, qalb, insoni komil .G'iybat -zokirning qalbida paydo bo'lgan ma'nolar bilan mashg'ul bo'lib, xalqning ahvolini unitish yoki g'ofil qolishi .G'ayn - istig'for va zikr bilan o'rtadan ko'tariladigan qalbdagi hijob va parda .U ikki nav'dir: biri yupqa, ikkinchisi qalin .Qalin parda katta gunoh qilgan va g'aflat bandalarida bo'lur .Hafif parda esa, xoh nabi bo'lsin, valiy bo'lsin, hammada bo'lur .Hazrati Payg'ambarning “Qalbm g'ayn ichida qolur va har kun yuz da'fa Ollohdan avf tilayman”, deyishlari ushbu haqiqatni bir ifodasidir .Zokir inson haqida yuqorida bayon etilgan fikrlarni jamlab shunday ta'riflar bersak bo'ladi: Zokir inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi . Zokir inson Iloh bilan odamlar orasidagi vositachi, ilohiy amr, g'ayb asrorini oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug' homiydir, zokir inson ruhi azaldan ma'lum, u Tangri taolo yaratgan eng qudratli ruhdur, shu martabada u Allohning xalifasi bo'la oladi, zokirlar insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo'tabar zotdir .U azaldan martabasi aniq bo'lgan ruh emas, balki axloqiy-ma'naviy poklanish jarayonida kamolga erishgandir, zokir pok axloqli, ilohsevar shaxs komillikka intilishi va bu yo'lda nasiba olishi mumkin, zokirlikning oliy belgisi Haq yo'lidan borib xalqqa foyda keltirishdir.Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga naf keltirsa, yomonlarni tuz yo'lga solsa, Haq yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Руҳий тарбия. 2 китоб. Тикланиш .- Тошкент .:Шарқ, 2008 .-197 б
2. Usmon Turar .Tasavvuf tarixi .- T:1999
3. Xoja Ahmad Yassaviy .Umr yeldek o'taro... ..(matn)hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar f.f.d.I.Haqqul, f.f.d.N.Hasan .- T: Muharrir nashiryoti, 2020.
4. Shayx Abdulaziz Mansur “Qur'oni Karim ma'nolari tarjiması” .Forum .Ziyouz .com sayti .
5. Shayx Muhammad Yusuf Mahammad Sodiq .Tafsiri Hilol .- T .: Hilol nashiyoti, 2009 .
6. Ahmad Ziyuddin Kumushxonaviy.”Majmuatul-Ahzob” - Toshkent:”Sano-standart”, 2018 .582-bet.
7. N .Hasan .Yassaviylikka doir manbalar va “Devoni Hikmat”, Monografiya. T - “Akedemnashr, 2012 .
8. Suvanov, H. N. (2023). Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir. *Science and Education*, 4(6), 962-965.
9. Husniddin, S. (2022). " ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 126-131.
10. Suvanov, H. (2024). NATIONAL COLOR AND COMPARATIVE ANALYSIS IN THE WORKS OF MAHTUMQULI, GAFUR GHULAM AND ANVAR SUYUN. *Modern Science and Research*, 3(2), 778-781.

11. Suvanov, H. (2024). MILLIY MADANIYAT VA MILLIY KOLORIT BADIY ASARDA NAMOYON BO 'LISHI. *NRJ*, 1(4), 272-277.
12. Suvanov, H. (2023). MANIFESTATION OF THE NATIONAL COLOR CHARACTERISTIC OF THE NATIONAL MENTALITY IN THE WORKS OF BIBI ROBIA'SAIDOVA. *Modern Science and Research*, 2(10), 210-216.
13. Bazarov, S. A. (2024). UYG'UR YOZUVI. *Results of National Scientific Research International Journal*, 3(5), 372-378.
14. Bazarov, S. (2024). JURNALIST VA BLOGERLAR NUTQI ETIKASI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 3(1), 36-39.
15. Abdinazarovich, B. S. (2023, November). NUTQ MADANIYATINI BUZUVCHI FAKTORLAR. In *Konferensiyalar/ Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 541-545).
16. Abdinazarovich, B. S. (2023). Speech Technique and Culture of Bloggers and Journalists.
17. Abdinazarovich, B. S. (2023). Uzbek Lexicon and its Division.
18. Ziyodullayeva, M., & Muxtorova, M. (2024). ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODIGA AYRIM CHIZGILAR. *NRJ*, 1(3), 860-863.
19. Muxtorova, M. (2024). MAXTUMQULI SHE'RIYATIDA AYTISHUV: AN'ANA VA IZDOSHLIK. *NRJ*, 1(3), 254-257.
20. Muxtorova, M. (2024). SHOIRNING TO'RTLIK OLAMI (SHAFOAT TERMIZIY IJODI MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar*, 2(6 (43)).
21. Abdullayeva, N. (2024). MAXTUMQULI SHE'RLARIDA TALMEH SAN'ATINING QO 'LLANILISHI. *NRJ*, 1(4), 446-450.
22. Abdullayeva, N. (2023). AHMAD YASSAWI SECT: THE ISSUE OF ZIKR AND THE STATUS OF ZAKIR. *Modern Science and Research*, 2(5), 438-440.

INNOVATIVE
ACADEMY